

## **Universitet huzuridagi Jamoatchilik Kengashi to‘g‘risidagi NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2018-yil 4-iyuldagi Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3837-son qarorlariga muvofiq, universitet huzuridagi Jamoatchilik Kengashining (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik Kengashi deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti(keyingi o‘rinlarda Universitet) huzuridagi Jamoatchilik Kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, yuridik shaxs bo‘lmagan hamda doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

2. Jamoatchilik Kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. Jamoatchilik Kengashining tarkibi va Nizomi Universitet Kengashida ko‘rib chiqiladiva buyruq asosida tasdiqlanadi. Bunda, Jamoatchilik Kengashi qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, Nizomga kiritiladigan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar Universitet Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

### **2-bob. Kengashning vazifalari va vakolatlari**

4. Quyidagilar Jamoatchilik Kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ta‘lim sifati, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatish;
- Universitet professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo‘yicha tavsiyalar berish;
- talabalarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to‘liq o‘rganish maqsadida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish;
- Universitetdagi ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

5. Kengash o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida: ta‘lim sifati, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatishda:

- o'quv ishlarini tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshirilishini o'rganish, akademik guruhlarini shakllantirish, o'quv jarayoniga tegishli mashg'ulotlar jadvallari sifatini nazorat qiladi;
- dekanat va kafedralarda o'quv yuklamalarining me'yoriy talablar asosida, odilona taqsimot qilinishini, dars soatlari taqsimoti to'g'ri hisoblanishini o'rganadi;
- professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlari jadvaliga to'liq rioya etishi, o'quv mashg'ulotlarini ko'chirish, o'tkazmaslik, darsga kech qolish darslarni belgilangan vaqtdan erta tugatish hollarini o'rganadi, ularning sabablarini aniqlaydi, tahlil etadi hamda tegishli tavsiyalar beradi;
- ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bilan hamkorlikda fakultet professoro'qituvchilari tomonidan o'zaro darsga kirish, ochiq o'quv mashg'ulotlarini, muammoli darslarni tashkil etish rejalarining talab darajasida bajarilishini nazoratga oladi;
- oraliq va yakuniy nazoratlar hamda yakuniy davlat attestatsiyalari jarayonida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;
- zaruriy hollarda tegishli mutaxassislar ishtirokida ishchi guruhlar tuzib, darsga xalal bermagan holda o'quv mashg'ulotlari sifatini o'rganadi, tavsiyalar beradi;
- kafedralarda fanlardan o'quv mashg'ulotlarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi, kafedra filiallarida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning o'tkazilishini tashkil etish, o'qitish tizimiga zamonaviy informatsion texnologiyalar, masofaviy o'qitish uslublarini qo'llash faoliyatini o'rganadi;
- professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar hamda talabalar o'rtasida ma'naviyaxloqiy muhitning mavjudligini o'rganadi va bu muhitning buzilishiga olib keluvchi sabablarni tahlil etadi, zaruriy tavsiyalar beradi;
- ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha tadbirlar rejasini o'rganadi, tahlil qiladi va bu tadbirlarning o'quv jarayoniga xalaqit bermasligi, talabalarni o'quv mashg'ulotlaridan asossiz ravishda ozod qilib, turli tadbirlarga jalb etish sabablarini o'rganadi, xulosalar tayyorlaydi;
- talabalarni hasharlarga, oliy ta'lim muassasasi hududidagi turli xo'jalik ishlariga jalb etilishini nazorat qiladi va bu tadbirlar tufayli dars qoldirilishlarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi;
- professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularga mukofotlar belgilashda ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etilishi, mukofotlanishda shaxsning o'z xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajarishini, jamoat ishlarida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirokini hisobga olinishi kabi holatlarni nazorat qiladi;
- oliy ta'lim muassasasi, professor-o'qituvchilar va talabalarining faoliyati (ishdan bo'shatilishi yoki talabalar safidan chiqarilishi) bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi yig'ilishlarda ishtirok etish uchun o'z a'zolaridan vakil tayinlaydi;

- faol talabalar (fan olimpiadalari, sport musobaqalari, turli ko'rik-tanlovlar g'oliblari) va har jihatdan e'tirofga loyiq bo'lgan professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish bo'yicha oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga tavsiyalar kiritadi;
- talaba-yoshlarning talabalar turar joylaridagi, xususiy xonadonlardagi yashash sharoitlarini o'rganish, ularning shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qiladi, bu ishlarni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beradi;
- talabalar orasida tartib buzilik, axloqsizlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik kabi illatlar tarqalishining oldini olish va ota-onalar kengashi bilan hamkorlikda bu salbiy holatlarga qarshi faoliyat yuritish, nazorat etish, ahvolni yaxshilashga oid chora-tadbirlar ko'rish yuzasidan tavsiyalar beradi;
- talaba-yoshlarning oliy ta'lim muassasasi hududida, yashash joylarida turli nojo'ya harakatlar qilmasligi, jamoat tartibiga, qonunchilikka rioya etishlarini o'rganadi, nazorat qiladi va tavsiyalar beradi;
- talabalar uchun oliy ta'lim muassasasi hududida umumiy ovqatlanish joylaridagi xizmat va talablarning sifati va narxini o'rganadi;
- professor-o'qituvchilarga ilmiy faoliyat olib borish uchun sharoit yaratish, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari ustida ilmiy izlanishlar olib borayotganlarni ijtimoiy himoyalash, yil davomida faol ilmiy ish bilan shug'ullanib, yaxshi natijalarga erishganlarni mukofotlash, sust harakat qiluvchilarga chora ko'rish kabi ishlarni nazorat qiladi;
- professor-o'qituvchilar tomonidan monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni shartnoma asosida tayyorlanishini va ularga o'z vaqtida gonorarlar to'lanishini o'rganadi;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarish hamkorligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularning natijalarini tahlil qiladi va jamoatchilik nazoratini o'rnatadi;
- talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etilishi, xalqaro, respublika ilmiy anjumanlari, tanlovlari, ko'rgazmalari, fan olimpiadalari qatnashishi kabi ishlarni tashkil etilishini o'rganadi va tavsiyalar beradi;
- to'lov-shartnoma asosida ta'lim olayotgan talabalar tomonidan shartnoma talablarining o'z vaqtida bajarilishi, bu borada ota-onalarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan choralarni ko'radi;
- talabalarga stipendiyalarning o'z vaqtida berilishini, stipendiyalarda noqonuniy ushlab qolish hamda turli maqsadlarda pul yig'ish kabi xollarining bo'lmasligini nazorat qiladi, shu bo'yicha chora-tadbirlar belgilaydi;
- professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar hamda talabalarni ijtimoiy himoya qilish, ularga moddiy yordam ko'rsatish kabi ishlarning borishini nazorat qiladi va bu borada tavsiyalar beradi;
- byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishning mavjud me'yoriy hujjatlar talablariga mosligini nazorat qiladi;
- o'quv auditoriyalarining ahvoli, tozalik darajasi, dars o'tish sharoitlarini, auditoriyalarning kerakli anjomlar bilan ta'minlanganligini o'rganadi;

6. oliy ta'lim muassasalariga professor- o'qituvchilar tarkibiga ishga qabulqilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berishda:

professor- o'qituvchilarni ishga qabul qilish va attestatsiyadan o'tkazish jarayonida ishtirok etish va fikr bildirish uchun o'z a'zolaridan vakil tayinlaydi; ishga qabul qilinayotgan professor- o'qituvchining sinov uchun o'tkaziladigan ochiq darsida ishtirok etish uchun o'z a'zolaridan vakil tayinlaydi; ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini yozma ravishda bildiradi.

7. talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagifikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazishda:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini to'liq o'rganib chiqilishi hamda ularning asoslangan xolda, to'laqonli ravishda qanoatlantirilishini nazorat qiladi; talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini

to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi; professor-o'qituvchilar tomonidan talabalar bilimni xolisona baholamaslik, tamagirlik qilish kabi noqonuniy harakatlar sodir qilinishining oldini olish bo'yicha choralar belgilaydi, tavsiyalar beradi; talabalarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishi, sababsiz dars qoldirishlar, darsga kechikish, darslardan sababsiz ketib qolishi hollarining sabablarini o'rganadi, nazorat qiladi; talabalarning fanlar bo'yicha baholashida reyting to'g'risidagi nizom talablarining bajarilishini, baholash mezonlarini, tajribali o'qituvchilarning ish uslublarini o'rganadi va targ'ib etadi;

8. oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflartayyorlashda:

oliy ta'lim muassasasida jamoatchilik nazoratini olib borish yo'nalishlarini belgilaydi hamda uning ijrosi bo'yicha har chorakda oliy ta'lim muassasasi kengashida ma'lumot beradi; oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimining samaradorligini tanqidiy o'rganadi va tahlil

qiladi hamda takliflar kiritadi; faxriylar kengashi bilan hamkorlikda uzoq yillar mehnat qilgan va hozirda nafaqada bo'lgan professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarning ahvolidan, yashash sharoitlaridan xabardor bo'lish, lozim bo'lganda moddiy yordam berish kabi ishlarning amalga oshirilishida hamkorlik qiladi oliy ta'lim muassasasida muammoli masalalar yechimini topishda o'z vakolatlari doirasida ko'maklashadi; oliy ta'lim muassasasi kasaba uyushmasining boshlang'ich tashkiloti yig'ilishlarida

ishtirok etish uchun o'z a'zolaridan vakil tayinlaydi; oliy ta'lim muassasasi rahbariyati va kengashiga tartibsiz, ichki tartib-qoidalar va axloq-odob normalariga rioya etmagan talabalar va xodimlarga nisbatan tegishli chora qo'llash bo'yicha taklifini kiritadi; talabalarning xatti-harakati, o'zini tutishi, o'qishi, oliy ta'lim muassasasidagi faoliyati yuzasidan ularning ota-onalarini xabardor qiladi; korrupsiya va boshqa shu kabi illatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarda

faol ishtirok etadi, takliflar kiritadi; kafedralar, fakultetlarning yillik hisobotlarini rektorat tomonidan ko'rib chiqishda

jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Kengash amaldagi qonun hujjatlariga, o'z Nizomiga va oliy ta'lim muassasasining ustaviga muvofiq vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **3-bob. Jamoatchilik Kengashining tarkibini shakllantirish va faoliyatini tashkil etish**

9. Jamoatchilik Kengashi tarkibiga oliy ta'lim muassasasi talabalari, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, shuningdek oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan hamkor jismoniy va yuridik shaxslar vakillari ham kirishi mumkin.

10. Jamoatchilik Kengashida ishtirok etishning ixtiyoriyligi va Jamoatchilik Kengashi vakolatiga tegishli masalalarni hal etishda uning barcha a'zolarining teng huquqliligi tamoyillari asosida shakllantiriladi.

Jamoatchilik Kengashi, qoidalariga ko'ra, saylov asosida Jamoatchilik Kengashi raisi, raisning o'rinbosari, kotib va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Jamoatchilik Kengashi yetti kishidan kam bo'lmagan toq sondan iborat tarkibda tashkil etiladi. Jamoatchilik Kengashining shaxsiy tarkibi va rahbariyatidagi o'zgarishlar, qoidaga ko'ra, bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

11. Universitet rahbariyatining yaqin qarindoshlari Jamoatchilik Kengashi a'zolaribo'lishi mumkin emas.

Jamoatchilik Kengashi raisi va uning o'rinbosari Jamoatchilik Kengashining birinchi tashkiliy majlisida saylanadi, majlisda oliy ta'lim muassasasining rektori (direktori) raislik qiladi.

Jamoatchilik Kengashi raisi va uning o'rinbosari Jamoatchilik Kengashi a'zolari orasidan saylanadi.

Jamoatchilik Kengashi raisi Jamoatchilik Kengashi zimmasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

#### **12. Jamoatchilik Kengashi raisi:**

Jamoatchilik Kengashining yillik ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek Jamoatchilik Kengashining yillik ish rejasi bajarilishi to'g'risidagi hisobotni Kengashga hamda oliy ta'lim muassasasi jamoasiga taqdim etadi;

Kengash ishchi komissiyalari hisobotlari, axborotlarini eshitadi, tasdiqlaydi; Kengash majlisi kun tartibini belgilaydi va uni kiritadi;

Kengash qarorlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi nazorat qilinishini tashkil etadi;

Kengash a'zolari o'rtasidagi majburiyatlarni taqsimlaydi va alohida topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi hamda Kengash a'zolariga yuklangan vazifalar bajarilishi yuzasidan ularning ishini muvofiqlashtiradi;

Kengashning tarkibi, faoliyatini tashkil etishga, o'zgartirishga oid takliflar kiritadi; Kengash raisi lavozimi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi kengashi a'zosi

hisoblanadi. Kengash raisi o‘rinbosarining vakolatlari Kengashning qarori bilan belgilanadi.

### **13. Kengash a‘zolari quyidagi huquqlarga ega:**

Kengashga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan masalalarni tayyorlashda ishtirok etish;

Kengash majlislarida hamda oliy ta‘lim muassasasi kengashida ko‘rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

Kengash tomonidan tuziladigan sho‘balar, komissiyalar hamda ishchi guruhlariga saylash, saylanish va rahbarlik qilish;

Kengashning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

Kengash tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha xulosa taqdim etish;

Kengash qarorlari bilan yuklangan boshqa vazifalarni bajarish.

Kengash a‘zolari Kengash tarkibida o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

Kengash a‘zolari majlisda shaxsan qatnashishi kerak. Kengash oliy ta‘lim muassasasida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish, ijtimoiy-ma‘naviy muhit sog‘lomligini ta‘minlash, ta‘lim sifati va ilmiy salohiyatning hamda ijodiy madaniyatning yangi bosqichga ko‘tarishga oid masalalarni o‘rganish va tahlil qilish uchun sho‘balar, komissiyalar hamda ishchi guruhlarini tashkil etishi mumkin. Sho‘balar, komissiyalar hamda ishchi guruhlarining faoliyati va tarkibi Kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

14. Kengash o‘z ishlarini o‘zi tasdiqlagan rejalar asosida amalga oshiradi va o‘z majlislarini zaruriyatga ko‘ra, kalendar yil choragida kamida bir marta o‘tkazadi. Kengash raisi tomonidan uning a‘zolarining yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirilishi mumkin. Iltimosnomalarda navbatdan tashqari majlisni chaqirishning sabablari va asoslari bayon qilinishi kerak.

15. Kengash majlisini Kengash raisi, u bo‘lmagan taqdirda esa-Kengash raisining o‘rinbosari boshqaradi.

Kengash majlisi unda Kengash a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashganda huquqiy vakolatli hisoblanadi.

16. Kengash majlisida ko‘rib chiqiladigan masalalarning xususiyatiga ko‘ra, shuningdek sho‘balar, komissiyalar va ishchi guruhlar tarkibida ishlash uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislari, Oliy ta‘lim muassasasining xodimlari, boshqa jismoniy shaxslar taklif etilishi mumkin.

### **17. Kengash kotibi:**

Kengash majlisiga barcha zarur hujjatlarning o‘z vaqtida tayyorlanishini ta‘minlaydi; majlisni o‘tkazish muddatlari va joyini Kengash raisi bilan kelishadi; kun tartibi masalalari bo‘yicha Kengash majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi;

Kengash a‘zolari va taklif etilgan shaxslarni majlisning sanasi, kun tartibi loyihasi, majlisni o‘tkazish vaqti va joyidan xabardor qiladi;

Kengash faoliyati uchun lozim bo‘lgan tadbirlar va hujjatlar to‘g‘risida kengash a‘zolarini xabardor qiladi;

Kengash qarorlari bajarilishi monitoringini yuritadi;

Kengash bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarni Kengash a'zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi;

Kengash qarorlari bilan unga yuklangan boshqa vazifalarni bajaradi. Kengash kotibi Kengash a'zosi hisoblanadi.

18.Kengash faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, hujjatlarini yuritish va saqlanishini tashkil etish Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasasidagi yetakchisi tomonidan amalga oshiriladi.

19.Kengash ish tartibi Kengash tomonidan tasdiqlanadigan Kengashning ish reglamentiga muvofiq tashkil etiladi.

20.Kengash o'z faoliyati to'g'risidagi yillik ma'lumotni tegishlilik bo'yicha yuqori turuvchi organ - vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idoraga taqdim etadi.

21.Kengash o'z faoliyatini ta'lim muassasasining rektori (direktori) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

#### **4-bob. Kengash tomonidan qarorlarning qabul qilinishi va ularning ijrosini tashkil etish:**

22.Kengash qarori uning majlislarida qabul qilinadi. Kengash yig'ilishlari yakunlari bo'yicha, Kengashning a'zolari bilan kelishilgan holda (imzo qo'yish orqali) majlis bayoni hamda Rais tomonidan tasdiqlanadigan va mas'ul kotib imzolaydigan qaror rasmiylashtiriladi. Kengash majlis bayoni va qarori tasdiqlangandan keyin bir hafta muddatda Kengash a'zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi.

23.Kengashning hap bir a'zosi qabul qilinadigan qarorlar yuzasidan o'z fikrmulohazalarini yozma ifodalash huquqiga ega. Bunda uning fikri Jamoatchilik Kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib quyiladi.

24.Rais qarorlarni tezkor qabul qilish maqsadida, Kengashning alohida masalalar bo'yicha qarorlarini Kengash a'zolari bilan muhokama o'tkazish yo'li orqali tasdiqlashi mumkin.

25.Kengash qarorlari kengashning majlisida ishtirok etayotgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lgan hollarda Kengash majlisida raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

26.Qabul qilingan qarorlar oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida faollashtirilishi va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi mumkin.

27.Kengash bayonining asl nusxasi va unga ilova qilingan hujjatlar Kengash mas'ul kotibida saqlanadi.

28.Oliy ta'lim muassasasining rektori (direktori) Kengash hujjatlarining saqlanishi ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

29.Kengash qabul qilingan qarorlarning bajarilishini o'z yig'ilishlarida muntazam ravishda ko'rib chiqadi.

## **5-bob. Yakuniy qoidalar**

30.Kengash raisi, uning o‘rinbosari, mas’ul kotibi va alohida faol a’zolari oliy ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan tartibda rag‘batlantiri boriladi.

31.Kengashni tarqatib yuborish tasarrufida tegishli oliy ta’lim muassasasi bo‘lgan vazirliklar va idoralarning qarorlari asosida amalga oshiriladi.

32.Mazkur Nizom Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan.



**Muhammad al-Xorazmiy nodagi TATU Jamoatchilik kengashi  
TARKIBI**

<b>T/R</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Kengash a'zoli</b>
1.	B.Maxkamov	Rektor	Rais
2.	R.Isayev	Kafedra professori	Rais o'rinbosari
3.	D.Yaxshibayev	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor	A'zo
4.	Dj.Sultanov	O'quv ishlari bo'yicha prorektor	A'zo
5.	K.Tashev	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	A'zo
6.	S.Toshmatov	Moliya va iqtisod ishlar bo'yicha prorektor	A'zo
7.	Sh.To'rayev	Hududiy filiallar bilan ishlash bo'yicha prorektor	A'zo
8.	L.Jo'rayev	Tashkiliy nazorat boshqarmasi boshlig'i	Kengash kotibi
9.	S.Jumayev	TATU boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi	A'zo
10.	Z.Begmatova	HR Inson resurslari bo'limi boshlig'i	A'zo
11.	M.Miryoqubov	Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi	A'zo
12.	L.Muratova	TATU yuriskonsulti	A'zo
13.	M.Raxmatullayev	TATU Bosh auditori	A'zo
14.	D.Irgasheva	Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori	A'zo
15.	H.Sultonova	TATU xotin-qizlar qo'mitasi raisi	A'zo
16.	U.Qo'chqarov	TATU Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi	A'zo
17.	N.Axmedova	Kafedra dotsenti	A'zo
18.	N.Xaydarov	UzAAA muxbiri	A'zo
19.	D.Ulyanov	TATU Axborot resurs markazi xodimi	A'zo
20.	X.Mullajanov	Yunusobod tumani Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi boshlig'i	A'zo
21.	X.Xojiyev	Hiyobontepa MFY raisi	A'zo

